




with the support of the
Erasmus+ Programme of the European Union

**O'ZBEKISTONDA ERASMUS+
LOYIHALARINING UCHINCHI AVLODI
"OLIV TA'LIMDA SALOHIYATNI OSHIRISH"
(CAPACITY BUILDING IN HIGHER EDUCATION)
2017 YIL TANLOV NATIJALARI**

**TOSHKENT
2017**



O'zbekistondagi Erasmus+
Milliy Ofisi tomonidan tayyorlangan


Ushbu risola Yevropa Ittifoqining Erasmus+
dasturi tomonidan moliyalashtirilgan

Risolada aks ettirilgan xulosalar
Yevropa Komissiyasining fikrini ifoda etmaydi



Erasmus+ dasturi

Erasmus+ dasturi - ta'lim, professional ta'limni taraqqiy ettirish, yoshlarni kamolotga yetkazish va sportni rivojlantirish sohalari bo'yicha 2014-2020 yillar uchun mo'ljallangan Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan dasturdir. Erasmus+ dasturi yuqorida keltirilgan sohalar bo'yicha avvalgi eng muvaffaqiyatli Yevropa Ittifoqining dasturlarini, shu qatorda Tempus va Erasmus Mundus dasturlarini o'z ichiga qamrab olgan.



2014-2020 yillar uchun dasturning umumiy byudjeti 14.7 milliard yevroni tashkil qiladi va ushbu mablag' 4 million kishi uchun ta'lim grantlarini taqdim qilish va 125000 muassasalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan. Ushbu dastur dunyoning turli burchaklaridagi talabalar, doktorantlar, professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlar uchun bir qator imkoniyatlar taqdim qiladi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari Erasmus+ dasturining quyidagi yo'nalishlarida ishtirok etish imkoniyatlari mavjud:

- ▶ **Oliy ta'limda salohiyatni oshirish**
- ▶ **Xalqaro kredit safarbarligi**
- ▶ **Qo'shma magisterlik darajalari**
- ▶ **Jean Monnet**

Oliy ta'limda salohiyatni oshirish

Mazkur yo'nalish (CBHE) doirasida Qo'shma loyihalar (QL) va Strukturaviy loyihalar (SL) moliyalashtiriladi. Har yili bo'lib o'tadigan tanlovlar asosida loyiha takliflarini topshirish mumkin, batafsil ma'lumot quyidagi web-saytda mavjud:

http://ec.europa.eu/programmes/erasmus-plus/index_en.htm.

2015 yilda Erasmus+ dasturi CBHE yo'nalishining 1-chi tanlovi doirasida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari ishtirokida 12 loyiha tanlab olingan: 4ta milliy loyiha, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikda 7ta loyiha va Rossiya universitetlari bilan 1ta loyiha.

2016 yilda Erasmus+ dasturi CBHE yo'nalishining 2-chi tanlovi doirasida moliyashtirish uchun 7 loyiha tanlab olingan, bular 3ta milliy loyiha, 3ta mintaqaviy loyiha va Markaziy Osiyo davlatlari bilan 1ta loyihadir.

Uchinchi tanlov doirasida esa 2017 yil 9 fevralga qadar jami 833 ta loyiha takliflari topshirilgan bo'lib, shulardan 42 ta loyiha takliflari O'zbekiston OTMLari tomonidan taqdim qilingan.


Tanlov jarayonida 149 ta loyiha moliyalashtirishga tavsiya qilindi va bular qatorida, respublikamizning O'zbekiston OTMLari ishtirokida 7 ta loyiha ham mavjud. 7 ta loyihaning 3 tasi milliy loyihalar bo'lib, uning mablag'i 2.77 mln. yevroni tashkil qiladi, 2 ta mintaqalararo loyiha uchun 1.67 mln. yevro hamda 2 ta Rossiya, Armeniya, Ukraina va V'etnam davlatlari bilan hamkorlikdagi

loyihalar uchun 1.97 mln. yevro ajratilishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston ishtirokidagi 7 ta yangi loyihalarga 20 ta oliy ta'lim muassasalari, ya'ni Toshkent shahrining 9 ta OTMlari hamda 7 ta viloyatning 11 ta OTMlari jalb qilingan.

2017 yilning 15 oktyabr holatiga ko'ra, CBHE loyihalarida respublikaning 48 OTMlari ishtirok etmoqda, dasturning boshqa yo'nalishlari, shu qatorda Kredit mobilligi loyihalarida 58 OTM jalb qilingan.


Erasmus+ CBHE: O'zbekiston OTMlarining 3-chi tanlovdagi ishtiroki



Jami: 20 OTM

Toshkentdan 9 OTM va 7 respublika viloyatlaridan 11 OTM

Erasmus+ CBHE: 3-chi tanlovda O'zbekiston viloyatlari bo'yicha OTMlar ishtiroki



Jami: 20 OTM


Toshkentdan 9 OTM va 7 respublika viloyatlaridan 11 OTM

Erasmus+ dasturida ilk bor Yevropa Ittifoqi universitetlari bilan uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini quidagi OTMLar o'rnatadilar: Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti va Toshkent temir yo'l transporti muhandislari instituti.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (OO'MTV) 3 yil davomida amalga oshiriladigan "INTRAS: Intellektual transport tizimlari: O'zbekistonda AKTga asoslangan yangi magistratura dasturlarini yaratish" loyihasida qatnashadi.

CBHE loyihalari Yevropa Ittifoqiga a'zo 15 ta davlatlarning 26ta universitetlari va 6 hamkor-davlatlarning 15 universitetlari bilan uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini o'rnatish uchun asos bo'ladi.

Erasmus+ CBHE: 3-chi tanlov doirasidagi Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar universitetlari



Jami: 15 Ylga a'zo davlatlardan 26 universitet


Uchinchi tanlov doirasida O'zbekiston OTMLari Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasi, Armeniya, Ukraina va V'etnam kabi hamkor-davlatlar bilan hamkorlik o'rnatilishi ko'zda tutilgan.

Erasmus+ CBHE: 3-chi tanlov doirasidagi hamkor-davlatlar universitetlari




Jami: 6 hamkor-davlatlardan 15 universitet

Erasmus+: CBHE loyihalari turlari bo'yicha



Jami: 25 ta loyiha

Erasmus+: CBHE loyihalari turlari bo'yicha



Jami: 25 ta loyiha

O'zbekiston Respublikasi OTMLari ishtirokidagi "Oliy ta'lim salohiyatini oshirish" yo'nalishi bo'yicha tanlab olingan loyihalar ro'yhati

№	Loyiha raqami va nomi	Loyiha konsortsium tarkibi		Loyiha davomiyligi va muddati
		Dasturiy-davlatlar universitetlari	Hamkor-davlatlar universitetlari	
1	586292-EPP-1-2017-1-PL-EPPKA2-CBHE-JP INTRAS: Intellectual transport tizimlari: O'zbekistonda AKTga asoslangan yangi magistratura dasturlarini yaratish	Grant oluvchi: Gdansk texnologiya universiteti (Polsha) Avstriya: Klagenfurt universiteti Slovakiya: Zilina shahridagi Zilinska	O'zbekiston: Toshkent temir-yo'l muhandislari instituti, Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Andijon mashinasozlik instituti, Jizzax politexnika instituti, Termiz davlat universiteti, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi, "Toshshaxartransxizmat", aksiyadorlik kompaniyasi, "Via-Tashkent"	36 oy 15/10/2017 14/10/2020
2	586000-EPP-1-2017-PT-EPPKA2-CBHE-JP BUZNET: O'zbekistonda veterinar tarmog'ining tarkibli ta'limi	Grant oluvchi: Porto universiteti (Portugaliya) Estoniya: Estoniya tabiiy fanlar universiteti Italiya: Padua universiteti, Pisa universiteti	O'zbekiston: Toshkent davlat agrar universiteti, Andijon qishloq xo'jaligi instituti, Toshkent davlat agrar universitetining Nukusdagi filiali, Samarqand qishloq xo'jaligi instituti	36 oy 15/10/2017 14/10/2020

<p>3</p> <p>585718-EPP-1-2017-1-HU-EPPKA2-CBHE-JP</p> <p>DSinGIS: Geoinformatika fanlarida doktorlik faoliyati</p>	<p>Grant oluvchi: Óbuda universiteti (Vengriya)</p> <p>Shvetsiya: Qirollik texnologiya instituti (KTH)</p> <p>Germaniya: Leibniz o'tish iqtisodiyotida qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO)</p>	<p>O'zbekiston: O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent arxitektura-qurilish instituti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Qoraqalpoq davlat universiteti, Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti</p>	<p>36 oy</p> <p>15/10/2017</p> <p>14/10/2020</p>
<p>4</p> <p>586094-EPP-1-2017-1-EPPKA2-CBHE-JP</p> <p>IHOD: Surunkali kasalliklarda sog'liqni saqlash samaradorligini oshirish - Magistratura darajasida o'quv dasturini takomillashtirish</p>	<p>Grant oluvchi: Irlandiya milliy universiteti qoshidagi Dublin universitet kolleji (Irlandiya)</p> <p>Litva: Litva sog'liqni saqlash fanlari universiteti</p> <p>Italiya: Pavia universiteti</p> <p>Ispaniya: Valensiya politexnika universiteti</p>	<p>O'zbekiston: Toshkent tibbiyot akademiyasi, Buxoro davlat tibbiyot instituti</p> <p>V'etnam: Tailand Nguyen universiteti, Xanoy tibbiyot universiteti</p> <p>Rossiya: Uzoq Sharq federal universiteti, Qozon innovatsion universiteti, Federal sog'liqni saqlash va ijtimoiy rivojlanish davlat tibbiyot universiteti, Moskva davlat tibbiyot universiteti</p>	<p>36 oy</p> <p>15/10/2017</p> <p>14/10/2020</p>

5	<p>585382-EPP-1-2017-1-SE-EPPKA2-CBHE-JP</p> <p>EPCA: Markaziy Osiyoda atrof-muhit muhofazasi: Fazoviy usullar bilan ofatlar xavfini boshqarish</p>	<p>Grant oluvchi: Lunds universiteti (Shvetsiya)</p> <p>Gretsiya: Afina milliy texnika universiteti Portugaliya: Minho universiteti Litva: Vilnius Gediminas texnika universiteti</p>	<p>O'zbekiston: Qoraqalpog' davlat universiteti, Urganch davlat universiteti</p> <p>Qirg'iziston: Qirg'iziston davlat universiteti, O'sh davlat universiteti</p>	<p>36 oy 15/10/2017 14/10/2020</p>
6	<p>585603-EPP-1-2017-1-DE-EPPKA2-CBHE-JP</p> <p>TOPAS: Agrar sohasidagi tadqiqotlarda nazariy ta'limdan amaliy talimga o'tish</p>	<p>G r a n t o l u v c h i : Weihenstephan-Triesdorf amaliy fanlar universiteti (Germaniya)</p> <p>Polsha: Vrotslavdagi tabiiy fanlari universiteti Ruminiya: Ioni Ionescu de la Bred lasi qishloq xo'jaligi fanlari va veterinariya universiteti UK: RitiI universiteti kolleji</p>	<p>O'zbekiston: Andijon qishloq xo'jaligi instituti, Samarqand qishloq xo'jaligi instituti</p> <p>Armaniston: Arman milliy agrar universiteti, Yerevan davlat universiteti</p> <p>Ukraina: Ukraina hayot va ekologiya bo'yicha milliy universiteti, Sumi milliy agrar universiteti</p>	<p>36 oy 15/10/2017 14/10/2020</p>
7	<p>585845-EPP-1-2017-ES-EPPKA2-CBHE-JP</p> <p>CLASS: Markaziy Osiyo universitetlarida hisoblash lingvistik bo'yicha magistrlik dasturini ishlab chiqish</p>	<p>Grant oluvchi: Santiago de Compostela universiteti (Ispaniya)</p> <p>Ispaniya: Koruna universiteti Gretsiya: Afina texnologik ta'lim instituti Portugaliya: Porto universiteti Polsha: Poznan shahridagi Adam Mickiewicz universiteti</p>	<p>O'zbekiston: O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Urganch davlat universiteti</p> <p>Qozog'iston: Qozog' milliy universiteti, L.N. Gumilyov Yevro-Osiyo milliy universiteti, Kostanay davlat universiteti</p>	<p>36 oy 15/10/2017 14/10/2020</p>

Loyihalar faoliyati tavsifi va erishilgan ilg'or tajribalar hamda safarbarlikning samaralari har yili chop etiladigan Tempus va Erasmus+ maqolalar to'plamlarida mavjud. Ushbu to'plamlarni www.erasmusplus.uz veb-saytdan yuklab olish mumkin.

Erasmus+ CBHE yo'nalishi bo'yicha 2018 yilda loyiha takliflarini topshirmoqchi bo'lgan OTMLar diqqatiga milliy ustuvor yo'nalishlar ro'yhati berilmoqda.

MILLIY USTUVOR YO'NALISHLAR RO'YHATI ERASMUS +

Oliy ta'limda salohiyatni oshirish (CBHE)

Kategoriya 1 - O'quv dasturlarini islohotlashtirish

- ▶ **Ta'lim**
Pedagogika, maktabgacha bo'lgan ta'lim muassasalar o'qituvchilarini tayyorlash, sohasiz o'qituvchilarni tayyorlash; soha mutaxassislari mavjud o'qituvchilarni tayyorlash
- ▶ **Biologiya va o'xshash fanlar**
Biologiya va biokimyo
- ▶ **Aniq fanlar**
Kimyo, yerni o'rganish fani, fizika
- ▶ **Matematika va statistika**
Matematika va statistika

- ▶ **Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari**
Komputerlardan foydalanish, ma'lumotlar bazasi va tarmoqlarni ishlab chiqish va boshqarish, dasturiy ta'minot va ilovalarini ishlab chiqish va tahlili
- ▶ **Muhandislik fanlari va muhandislik ishi**
Kimyoviy texnologiya va ishlov berish, atrof-muhitni muhofaza qilish texnologiyasi, elektr quvvati va energiya, elektronika va avtomatlashtirish, mexanika va metallni qayta ishlash, transport vositalari, kema va uchuvchi moslamalar
- ▶ **Ishlab chiqarish va qayta ishlash**
Oziq-ovqat sanoati, materiallar (yog'och, qog'oz, plastik, shisha), Ishlab chiqarish va qayta to'qimachilik, kiyim-kechak, poyabzal, charm, konchilik sanoati va qazib olish
- ▶ **Arxitektura va qurilish**
Arxitektura va shaharsozlik, uy-joy va jamiyat qurilishi
- ▶ **Qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik, baliqchilik va veterinariya**
O'simlikshunoslik va chorvachilik, bog'dorchilik, o'rmonchilik, baliqchilik, veterinariya
- ▶ **Sog'liqni saqlash**
Stomatologik tadqiqot, tibbiyot, hamshiralik ishi va akusherlik, tibbiy diagnostika va davolash texnologiyasi, terapiya va rehabilitatsiya, farmatsevtika, an'anaviy va majburiy tibbiyot va terapiya

Kategoriya 2 - Oliy ta'lim muassasalarning boshqaruvi va faoliyat sifatini oshirish

- ▶ *Boshqarish, strategik rejalashtirish va OTMLar boshqaruvi (jumladan, inson resurslarini boshqarish, moliy menedjmenti va boshqalar)*
- ▶ *Sifat ta'minoti jarayoni va mexanizmlari (jumladan, sifat ta'minoti uchun mexanizm va ko'rsatkich nazoratini ishlab chiqish)*
- ▶ *Ilmiy-tadqiqot va innovatsion salohiyatni rivojlantirish (jumladan, ilmiy tadqiqotdan tashqari)*

Kategoriya 3 - Jamiyatda oliy ta'lim sohasini rivojlantirish

- ▶ *Maktab va kasb-hunar ta'lim tizimini uchlamchi bo'lmagan darajada rivojlantirish (jumladan, o'qituvchilarni ish faoliyatidan uzmaganda holda o'qitishni islohotlashtirish hamda o'qituvchilar kasbini isloh qilish)*
- ▶ *Bilim uchburchagi, innovatsiyalar (ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va biznes o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash)*
- ▶ *Oliy ta'limda yangi texnologiyalar*
- ▶ *Ochiq ta'lim resurslari, aloqalar, raqamli malakalar va o'qitish uslublarini olib kirish hamda qiziqish bildirgan tomonlarning safarbarligi, shu qatorda o'qituvchilar, talabalar, iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlar orqali oliy ta'lim tizimini islohotlashtirish orqali qo'llab-quvvatlash*

Ushbu dastur Yevropa Komissiyasi rahbarligida Ta'lim, audiovizual vositalar va madaniyat ijroiya agentligi tomonidan amalga oshiriladi http://eacea.ec.europa.eu/erasmus-plus_en





O'zbekistondagi Erasmus+ Milliy Ofisi
Toshkent, 100084, Amir Temur ko'chasi, 107B
Xalqaro biznes markazi, 11 qavat
Tel: + (998) - 71 238 9918/21
Faks: + (998) - 71 238 58 99
neo@erasmusplus.uz
www.erasmusplus.uz
<https://www.facebook.com/erasmusplusuz>

